



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI

ЦЕНТРАЛЬНЫЙ БАНК
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

THE CENTRAL BANK OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100001, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Islom Karimov ko‘chasi, 6.
Tel.: (+99871) 212-60-21, 212-62-99, 200-00-44, 233-32-70, Faks: (+99871) 233-79-39.
www.cbu.uz, info@cbu.uz, cbu@exat.uz

100001, Республика Узбекистан,
г. Ташкент, улица Ислама Каримова, 6

6, Islam Karimov street, 100001, Tashkent,
Republic of Uzbekistan

2025 у. “11” dekabr № 26-20/2349

Tijorat banklariga

Markaziy bankka kelayotgan murojaatlar tahlili hamda tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan masofaviy xizmatlar monitoringi natijalariga ko‘ra, banklar mobil ilova orqali ma‘lum bir xizmatdan foydalanish uchun iste‘molchiga avvalo umumiy “bosh oferta”ni tasdiqlashni taklif etganda, mazkur oferta bir necha o‘nlab varoqlardan iborat bo‘lib, u nafaqat iste‘molchi foydalanish istagida bo‘lgan aniq bir xizmatni, balki bank tomonidan mobil ilova orqali ko‘rsatiladigan barcha xizmatlar bo‘yicha shartlar yoki shartnomalarni o‘z ichiga qamrab olishini kuzatish mumkin. Natijada, iste‘molchining faqat bitta xizmatdan foydalanish istagi bo‘lsa-da, u “bosh oferta”ni akseptlash orqali o‘zi uchun zarur bo‘lmagan boshqa xizmatlar shartlariga ham umumiy rozilik berishga majbur bo‘lib qolmoqda.

Qayd etish lozimki, odatda iste‘molchilar mobil ilovadagi shartnoma bilan batafsil tanishib chiqmaydilar yoki shartnomaning mazmun-mohiyatiga to‘liq tushunmay rozilik beradilar va ularning fikri bo‘yicha aynan tanlangan va o‘zlari hojlagan xizmat bo‘yicha shartlarga rozilik berayapman deb o‘ylab, imzolaydilar.

Bunda, iste‘molchining e‘tiborsizligidan foydalanib, ayrim banklar o‘zlarining bir nechta xizmatlari bo‘yicha shartlarni “bosh oferta” shaklida umumlashtirilgan holda taqdim etib, bankning bir nechta xizmatlari bo‘yicha shartlarga iste‘molchining roziligini olishlari kelgusida “*men ofertaga rozilik berish paytida bu xizmatni so‘ramagan edim*”, “*menga o‘sha paytda falon shartga rozi bo‘lgansan deb aytishyapti*” kabi vajlar kelib chiqishi xamda bank va iste‘molchi o‘rtasida nizolar yuzaga kelishiga zamin yaratmoqda.

Bundan tashqari, kredit kartasi bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik yuzaga kelganda, ayrim banklar bunday kartani avtomatik ravishda bloklashi va shundan keyin iste‘molchi mazkur kartaga mablag‘ kirim qilganda undan bank komissiyasi undirilishi holatlari kuzatilmoqda. Bunda, iste‘molchining majburiyatini bajarishga bank

tomonidan to'sqinlik qilinishi oqibatida u bank oldidagi majburiyatini bajarishi qiyinlashadi, shuningdek kelgusida mazkur masala yuzasidan yuqori turuvchi tashkilotlarga shikoyat qilish ehtimolini oshiradi. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 787-moddasida mijozning hisobvaraqda turgan pul mablag'larini tasarruf qilish huquqlarini cheklashga qonunda nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yilishi belgilangan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 9-moddasida fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining halol, oqilona va adolat bilan harakat qilishi kerakligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni 18-moddasiga ko'ra, shartnoma predmetiga taalluqli bo'lmagan shartlarni majburan qabul qildirish ustun muzokara kuchiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektning ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishi deb e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 65-moddasida bank shaxsni bankning xizmatidan yoki mahsulotidan foydalanish sharti sifatida bankning yoki o'zga uchinchi shaxsning boshqa bank xizmatidan yoki mahsulotidan foydalanishga majbur qilmasligi kerakligi belgilangan.

Markaziy bank yuqorida qayd etilgan bank amaliyotlarini adolat tamoyillariga zid va mazmun jihatdan insofsiz amaliyot sifatida baholaydi.

Shu munosabat bilan barcha tijorat banklari:

- iste'molchilarga mahsulotlar va xizmatlar bo'yicha shartnomani (ofertani) taqdim qilishda ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilgan holda, iste'molchi foydalanish istagini bildirmagan boshqa xizmatlar bo'yicha ham shartlar kiritilishiga yo'l qo'ymasligi;

- ko'rsatilgan bank xizmatlari uchun komissiya joriy etishda adolat va halollik tamoyillarini qo'llagan holda yondashishlari lozimligi bildiriladi.